

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-soni)**



**PEDAGOGIKA
PEDAGOGY**

**INGLIZ TILINI O‘QITISHDA TALABALARNING TIL KO‘NIKMALARINI
LOYIHA TEKNOLOGIYASI ORQALI RIVOJLANTIRISH**

Axmedova Ugiljon Kuronboyevna
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitishda talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda loyiha texnologiyasidan samarali foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari loyiha asosida o‘qitish metodikasining talabalar til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi afzalliklarini yoritib beradi hamda pedagoglarga metodik tavsiyalar taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: kreativlik, loyiha texnologiyasi, kommunikativ kompetensiya, innovatsion ta’lim, interfaol metodlar.

**РАЗВИТИЕ ЯЗЫКОВЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ
ПРОЕКТНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

Аннотация. В статье рассматривается эффективное использование проектной технологии в развитии языковых навыков учащихся при преподавании английского языка. Результаты исследования подчеркивают преимущества проектного обучения в развитии языковых навыков учащихся и предлагают методические рекомендации педагогам.

Ключевые слова: креативность, проектная технология, коммуникативная компетентность, инновационное образование, интерактивные методы.

**DEVELOPMENT OF STUDENTS' LANGUAGE SKILLS THROUGH
PROJECT TECHNOLOGY IN ENGLISH TEACHING**

Abstract. This article considers the issues of effective use of project based learning in the development of students' language skills in teaching English. The results of the study highlight the advantages of project-based method in the development of students' language skills and offer methodological recommendations to teachers.

Key words: creativity, project based learning, communicative competence, innovative education, interactive methods.

Kirish. Hozirgi kunda chet tillarini, xususan, ingliz tilini o‘qitishda an’anaviy usullardan tashqari innovatsion texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Talabalarni til

muhiti bilan ta’minlash, ularning amaliy til ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun loyiha texnologiyasi samarali usullardan biri hisoblanadi. Bugungi globalashgan dunyoda ingliz tilini o‘rganish va o‘qitish masalasi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ilm-fan, texnologiya, biznes va ta’lim sohalarida ham yetakchi til hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xorijiy ilmiy manbalar va innovatsion g‘oyalarga erkin kirish imkoniyati aynan ingliz tilini bilihga bog‘liq bo‘lib qoldi. Shu sababli, ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitishning samaradorligini oshirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish va o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytirish muhim masalalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Loyerha texnologiyasi – bu o‘quv jarayonida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini amaliy faoliyat orqali rivojlantirishga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Ushbu usulda o‘quvchilar muayyan muammoni hal qilish yoki aniq natijaga erishish uchun mustaqil tadqiqot olib boradilar, rejalar tuzadilar va ijodiy ishlanmalar yaratadilar³².

Loyerha texnologiyasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

1. Muammo markaziy o‘rinda – O‘quvchilar muayyan muammoni hal qilish yoki dolzarb mavzuni o‘rganish ustida ishlaydilar.
2. Amaliy faoliyat – O‘rganish jarayoni nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash bilan uyg‘unlashadi.
3. Mustaqil va guruhiy ish – O‘quvchilar mustaqil yoki guruhi bo‘lib ishlash orqali jamoaviy hamkorlikni o‘rganadilar.
4. Natija va mahsulot – Loyerha yakunida muayyan mahsulot (hisobot, taqdimot, video, model, tadqiqot) yaratiladi.
5. Tadqiqotga asoslangan o‘qitish – O‘quvchilar mavzuga oid ma’lumotlarni mustaqil o‘rganib, tahlil qiladilar va o‘z xulosalarini chiqaradilar.

Loyerha texnologiyasining afzalliklaridan biri o‘quvchilar mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, jamoada ishlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantiradilar, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘laydilar. U o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirib, o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv holga keltiradi. O‘quvchilar tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash orqali tezroq o‘zlashtiradilar. Hamkorlikda ishlash orqali muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin va ijodiy ifodalashni o‘rganadilar. O‘quvchilar mustaqil tadqiqot olib borib, o‘z qarashlarini rivojlantiradilar. Dars jarayoni qiziqarli bo‘lgani uchun o‘quvchilarning ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

Ingliz tilini o‘qitishda loyerha texnologiyasi juda samarali usullardan biri hisoblanadi. Masalan: “Mening shahrim” loyihasida o‘quvchilar o‘z shahar yoki qishlog‘i haqida ingliz tilida

³²Karimova Z. “Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar”. Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

taqdimot tayyorlaydilar. Yoki “Sayohat” mavzusidagi loyiha orqali ingliz tilida sayohat rejasi tuzib, transport, mehmonxona va turistik joylar haqida ma’lumotlar yig‘adilar. “Intervyu olish” loyihasi orqali o‘quvchilar mashhur shaxs yoki mahalliy aholining turmush tarzi haqida intervyu tayyorlaydilar.

Loyiha texnologiyasi orqali ingliz tilini o‘rganish o‘quvchilarni faol va qiziquvchan bo‘lishga undaydi hamda ularning til kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi. Loyiha texnologiyasi – o‘quv jarayonida talabalarni faollikka undovchi, mustaqil ijodiy izlanish va amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oluvchi metodlardan biridir. Bu usulda talabalar ma’lum bir muammoga yechim topish, tadqiqot olib borish va natijalarni taqdim etish orqali til ko‘nikmalarini rivojlantiradilar³³.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilini o‘qitishda loyiha texnologiyasi bo‘yicha ilmiy izlanish olib borgan olimlardan biri John Dewey (1859–1952) ta’lim jarayonida amaliy tajribaga asoslangan yondashuvni ilgari surgan. Uning g‘oyalari loyiha texnologiyasining rivojlanishiga asos bo‘ldi. William H. Kilpatrick (1871–1965) “Project Method” (Loyiha usuli) konsepsiyasini ishlab chiqqan va bu yondashuvning samaradorligini tadqiq qilgan. Jean Piaget (1896–1980) o‘quvchilarning bilish jarayoni va tajriba orqali o‘rganish tamoyillarini o‘rgangan, bu esa loyiha texnologiyasiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Lev Vygotsky (1896–1934) o‘rganish jarayonida ijtimoiy muloqot va hamkorlikning ahamiyatini ta’kidlagan. Bu g‘oyalarni loyiha texnologiyasi asoslarini mustahkamlashda muhim bo‘ldi. Seymour Papert (1928–2016) Konstruktivistik ta’lim nazariyasi asoschisi bo‘lib, talabalar faoliyat orqali bilimlarni shakllantirishi kerakligini ta’kidlagan. Thomas Markham zamonaviy loyiha asoslangan o‘qitish usulining yetakchi tadqiqotchilaridan biri. U loyiha texnologiyasining ta’lim jarayonidagi samaradorligini chuqur o‘rganib chiqdi. David Nunan tillarni o‘qitish bo‘yicha yetakchi olimlardan biri bo‘lib, loyiha asosida o‘qitish usullarining samaradorligini tadqiq qilgan. John Larmer va Suzie Bossushbu texnologiya bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar olib borgan va bu usulni ingliz tilini o‘qitishda qanday qo‘llash mumkinligini ko‘rsatgan.

Ingliz tilini o‘qitishda loyiha texnologiyasi samarali pedagogik yondashuv sifatida o‘quvchilarning barcha til ko‘nikmalarini – tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar tilni amaliyotda faol qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Loyiha texnologiyasi quyidagi asosiy til ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam qiladi:

1. **Tinglab tushunish (Listening)**-Loyiha jarayonida o‘quvchilar ingliz tilidagi audio va video materiallarni tinglashadi. Intervyu olish, suhbat qilish yoki taqdimotlar tinglash orqali eshitish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan, “**Mashhur inson haqida podkast yaratish**” loyihasi orqali turli aksent va talaffuzlarni eshitishadi.

³³Brown H. D. “Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy”. Pearson, 2015.

2. **Gapirish (Speaking)**-O‘quvchilar taqdimotlar, intervular va muhokamalar orqali og‘zaki nutqni rivojlantiradilar.Guruh loyihasida ingliz tilida muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Masalan, “**Turistik agentlik ochish”loyihasida** mijozlar bilan suhbat qilib, xizmatlarni taqdim etishadi.

3. **O‘qish (Reading)**-Loyiha mavzusiga doir ilmiy, badiiy yoki informatsion matnlarni o‘qib, tahlil qiladilar.Tadqiqot olib borish jarayonida turli manbalardan ma’lumotlar yig‘ib, tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan, “**Ekologik muammolar”loyihasidoirasida** maqolalar o‘qib, ularni muhokama qilishadi.

4. **Yozish (Writing)**-Loyiha natijalarini yozma shaklda ifodalash (maqola, hisobot, blog, insho, taqdimot matni).O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va mantiqiy ifodalashni o‘rganadilar. Masalan, “**Xalqaro maktub yozish”loyihasida** o‘quvchilar ingliz tilida xat yoki elektron pochta yozishni mashq qiladilar³⁴.

Loyiha texnologiyasi til o‘rganishni interaktiv, ijodiy va samarali jarayonga aylantiradi. O‘quvchilar faqat grammatikani o‘rganish bilan cheklanmay, balki ingliz tilidan real hayotda qanday foydalanish mumkinligini tushunadilar. Shu bois, ushbu metodologiya zamonaviy til ta’limida muhim o‘rin egallaydi.

Loyiha texnologiyasini tatbiq etish bosqichlari:

1. **Tayyorlov bosqichi:** mavzuni tanlash, maqsad va vazifalarni belgilash.
2. **Tadqiqot bosqichi:** talabalar mustaqil ravishda ma’lumot to‘playdilar, intervyu va so‘rovnomalar o‘tkazadilar.

3. **Ijodiy bosqich:** to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilib, loyiha shakllantiriladi.

4. **Taqdimot bosqichi:** talabalar natijalarini taqdim etadilar va muhokama qiladilar.

5. **Refleksiya bosqichi:** loyiha natijalari tahlil qilinib, kelgusidagi ishlar rejalashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda loyihami ta’lim usuli orqali talabalar real hayotiy vaziyatlarda chet tilidan foydalana olishadi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Shuningdek, bu usul ular orasida jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, loyiha texnologiyasi talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish, ijodkorlikni rivojlantirish va amaliy til qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.Loyiha asosida o‘qitish usullari talabalarni faol ishtirop etishga undab, ularning o‘zaro muloqot, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi. Shuningdek, ushbu texnologiya orqali talabalar real hayotiy vaziyatlarda tilni qo‘llashni o‘rganib, jamoaviy ish ko‘nikmalarini shakllantiradi..

ADABIYOTLAR

1. G‘ofurov U. “Ingliz tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2019.

³⁴Richards J. C., Rodgers T. S. “Approaches and Methods in Language Teaching”. Cambridge University Press, 2014.

2. Qodirov A., Xolmatova S. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Axmedova M. “Loyiha texnologiyasi asosida xorijiy til o‘qitish”. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021.
4. Jalolov J. “Chet tillarni o‘qitish metodikasi”. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi, 2012.
5. Karimova Z. “Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar”. Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
6. Harmer J. “The Practice of English Language Teaching”. Pearson Education, 2015.
7. Richards J. C., Rodgers T. S. “Approaches and Methods in Language Teaching”. Cambridge University Press, 2014.
8. Brown H. D. “Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy”. Pearson, 2015.
9. Nunan D. “Task-Based Language Teaching”. Cambridge University Press, 2004.
10. Beckett G. H., Slater T. “The Project-Based Second and Foreign Language Learning and Teaching”. Information Age Publishing, 2020.
11. <https://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/09/Full-Paper-THE-IMPORTANCE-OF-USING-PROJECT-BASED-LEARNING-PBL-IN-THE-DEVELOPMENT-OF-EFL-STUDENTS%E2%80%99-LANGUAGE.pdf>